



Received: April 17, 2025
Accepted: June 24, 2025
Available online: June 25, 2025

Marhabo Umurzoqova

Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston

LISONIY SHAXS MILLIY-MADANIY O'ZIGA XOSLIGINI IFODALOVCHI BIRLIKLAR XUSUSIDA

ANNOTATSIYA

Muayyan madaniyatga mansub lisoniy shaxs nutqida faqat shu millatga xos qadriyatlarni aks ettiruvchi birliklar uchraydi. Til insonlar orasida aloqa vositasigina bo'lib qolmay, ular mansub bo'lgan madaniyat, asrlar davomida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, milliy o'ziga xoslik, hayot tarzi haqidagi axborotlarni saqlovchi xazina hamdir. Mazkur maqolada lisoniy shaxsni belgilashda lingvomadaniy birliklarning o'zni masalasiga e'tibor qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi tilda turg'un, qoliplashgan shaklda mavjud birliklarning lisoniy shaxs lingvomadaniy xosligini belgilashdagi o'zini ko'rsatish, ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutiladi: lisoniy shaxs tushunchasiga aniqlik kiritish, lingvomadaniy birliklarni aniqlash, badiiy diskursda lisoniy shaxs voqelanishida lingvomadaniy birliklarning o'zini va ahamiyatini yoritish. Tilda lingvomadaniy jihatlarni aks ettiruvchi shunday birliklar borki, bu birliklar faqat shu tilga mansubligi, takrorlanmasligi, o'ziga xos leksik-semantik, sintaktik-struktural xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bunday birliklarni tadqiq qilish lingvokulturologiyaning vazifasidir. Maqolada milliy-madaniy mansublikka ishora qiluvchi birliklarning lisoniy shaxs lingvomadaniy xususiyatlarini ifodalashda muhim belgi ekanligini asoslash, o'zbek lingvomadaniyatiga xos lisoniy shaxs tiplarini aniqlashga e'tibor qaratilgan.

Marhabo Umurzakova

Associate Professor, Doctor of Sciences in Philology
(DSc)
Tashkent State University of the Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: umurzakovamarkhabo@gmail.com
ORCID iD: 0000-0001-5658-789X

ON THE UNITS THAT EXPRESS THE NATIONAL-CULTURAL IDENTITY OF A LANGUAGE PERSON

ABSTRACT

In the speech of a linguistic individual belonging to a particular culture, units that reflect the values inherent in this nation are found. Language is not only a means of communication between people, but also a treasure that preserves information about the culture to which they belong, the values, customs, national identity, and way of life that have been formed over the centuries. This article focuses on the role of linguistic and cultural units in determining a linguistic identity.

The purpose of the study is to show the role and significance of units existing in a stable, stereotyped form in the language in determining the linguistic and cultural identity of a linguistic individual.

To achieve the intended goal, the following tasks are envisaged: clarifying the concept of linguistic personality, identifying linguocultural units, highlighting the role and significance of linguocultural units in the realization of linguistic personality in artistic discourse. Linguistic-cultural aspects in the language are reflected by such units that are distinguished by belonging only to this language, non-repetition, and the presence of specific lexical-semantic, syntactic-structural features. The study of such units is the task of linguoculturology. The article focuses on substantiating the fact that units indicating national-cultural affiliation are an important sign in expressing the linguocultural characteristics of a linguistic personality, and on identifying types

Tadqiqot jarayonida lingvistik tavsiflash, tasniflash, kontekstual, pragmatik, lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Badiiy matnda lisoniy shaxs kommunikativ tajribaga ega, muayyan milliy madaniyat tashuvchisi – shaxsning lingvistik ong modelini aks ettiradi. Lingvokulturologiya shaxs tiplarini ajratishda tegishli madaniyat vakillarining xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan shaxs tiplarini tanlashni o'z ichiga oladi. Tabiiyki, lisoniy shaxsning lingvomadaniy xususiyatlari ular mansub bo'lgan madaniyatning tilga bevosita ta'siri nuqtayi nazaridan belgilanadi. Bunda shu til egasi mansub bo'lgan madaniyatning ta'siri u qo'llagan til birliklarida ko'zga tashlanishi, yaqqol ko'rinib turishi lozim bo'ladi.

Xulosada olqishlar, qarg'ishlar, o'xshatishlarning lisoniy shaxsni lingvomadaniy aspektda o'rganishda asosiy ko'rsatkich ekanligi asoslangan. Bunday birliklarning qo'llanilishi bilan bog'liq o'ziga xoslik, xususan, gender xoslanish, muallif dunyoqarashi kabilarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, lisoniy shaxs, lingvomadaniy birlik, olqishlar, qarg'ishlar, madaniyat, qadriyat, lingvomadaniy kod, o'xshatishlar.

of linguistic personalities specific to the Uzbek linguoculture.

The research used methods of linguistic description, classification, contextual, pragmatic, and linguocultural analysis.

In a literary text, a linguistic persona reflects a model of linguistic consciousness of an individual who possesses communicative experience and is a bearer of a specific national culture. Linguoculturology, when distinguishing personality types, involves the selection of personality types that have had a significant impact on the behavior of representatives of the corresponding culture. Naturally, the linguocultural characteristics of a linguistic person are determined from the point of view of the direct influence of the culture to which they belong on the language. In this case, the influence of the culture to which the speaker of this language belongs should be clearly visible and noticeable in the language units used by him.

The conclusion is based on the fact that accolades, curses, and similes are the main indicators in the study of linguistic personality from a linguocultural aspect. The focus is on the specificity associated with the use of such units, in particular, gender orientation, author's worldview, etc.

Key words: linguoculturology, linguistic personality, linguocultural unity, applause, curses, culture, value, linguocultural code, comparative expressions.

KIRISH

Inson, uning til egasi sifatida olamni o'ziga xos tarzda anglashi hamda tilda aks ettirishi masalasi bugungi kunda tilshunoslikda ko'plab yo'nalishlar uchun dolzarb masala sifaida qolmoqda. Insonni qator fanlar turli nuqtayi nazardan o'rganadi, unga "til egasi" sifatida yondashuv esa shu paytgacha mavjud qarashlarga ham o'zgartirishlar kiritishni taqozo qilmoqda. Inson o'zi mansub bo'lgan jamiyat vakillarining asrlar davomida o'zlashtirgan bilimlarini, olam haqidagi qarashlarini til vositasida o'zlashtiradi. o'ziga va o'zgalarga bo'lgan munosabatda madaniyat, qadriyatlar, urf-odatlariga bo'ysunadi. Til, madaniyat hamda millatning o'zaro aloqasi hamda munosabati masalasi tilshunoslikning lingvokulturologiya sohasining o'rganish obyekti sanaladi. Nutq muayyan bir shaxsga tegishli bo'lib, unda tilning lingvomadaniy xususiyatlari so'zlovchining dunyoqarashi sifatida namoyon bo'ladi, bu jihatdan u xususiydir. Ammo masalaning ikkinchi jihati ham borki, so'zlovchi o'zi mansub bo'lgan millatning tilida so'zlaganligi uchun ham qo'llanilgan birliklar xalq uchun umumiy, birday tegishli. Tildagi hamma birliklar ham madaniyatlar o'rtasidagi

farqni ifodalashda bir qiymatga ega emas. Ba'zi til birliklari madaniyatni aks ettirishda ustuvor bo'lsa, ba'zilarida esa madaniy jihatlar yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Xalqning milliy madaniyatiga xos hodisalarni aks ettirishda frazemalar, muqobilsiz leksika, o'xshatishlar, maqollarning ahamiyati katta. Tilda shunday birliklar borki, ular muayyan xalq madaniyati, dunyoqarshini aks ettirishi bilan takrorlanmas, o'ziga xos hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shunday birliklar sirasiga o'zbek tilida faol qo'llanuvchi olqishlar, qarg'ishlar kiradi.

TADQIQOT METODLARI

Maqolada tavsiflash, kontekstual tahlil, umumlashtirish kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, lisoniy shaxs tushunchasi tilshunoslikda turli aspektda o'rganilgan bo'lsa-da, muayyan yozuvchi asarlari misolida lingvokulturologik birliklarning badiiy asarda qo'llanilishi masalasini o'rganish yozuvchi uslubi, so'z qo'llash mahorati haqida axborot beribgina qolmay, u mansub madaniyat haqida ham tasavvur uyg'otadi. O'zbek adabiyotidan olingan namunalar tahlili asosida lingvomadaniy birliklarning lisoniy shaxsning lingvomadaniy aspekt-dagi talqini bugungi kunda dolzarbligini yo'qotmagan masalalar sirasiga kiradi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Lisoniy shaxs tushunchasi dunyo tilshunosligida turli xil aspektlarda o'rganilgan. Lisoniy shaxs muammosi lingvokulturologiyaning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda turlicha terminlar bilan atalib kelinayotgan mazkur tushunchaga Sh. Usmanova quyidagicha ta'rif beradi: "obyektiv voqelikni o'z ko'rinishiga muvofiq tasvirlash va ma'lum maqsadga erishish uchun muayyan tilning tizimli vositalaridan foydalangan holda ularni matnlarda aks ettirishi nuqtayi nazaridan tavsiflangan u yoki bu til sohibidir" [Usmanova, 2019; 178]. A.Mamatov lisoniy shaxs terminiga izoh berar ekan, lingvokulturologik aspektda bu termin til mentalligi tushunchasi bilan uzviy bog'liqligiga e'tibor qaratadi: "Til mentalligi "lisoniy shaxs" tushunchasi va uning ijtimoiy mavqeyini hisobga olgan holda lisoniy shaxsning ta'rifi bilan uzviy bog'langan" [Mamatov, 2020; 53].

V.A.Maslova "madaniyatni yaratuvchi va unda yashovchi ham inson, shaxs ekanligini, inson shaxs sifatida namoyon bo'lganda uning ijtimoiy tabiati birinchi planga chiqishini, o'zi ijtimoiy-madaniy hayotning subyekti sifatida harakat qilishini ta'kidlagan edi" [Maslova, 2010; 117]. Ilmiy adabiyotlarda til va madaniyat munosabatiga keng e'tibor qaratilganligini ko'rishimiz mumkin. "Til umuminsoniy madaniy merosni ifodalaydi. Shaxs lingvistik qobiliyati tufayligina tildan foydalanmaydi; aksincha, til malakasi unda til jamoasiga mansublik asosida o'sadi". [Ivanova, 2010; 25]. Til va madaniyat munosabati tilshunoslikda yangi yo'nalish lingvokulturologiyaning shakllanishi uchun asos bo'lgan. "Tilda lingvomadaniy jihatlarining muqarrar ravishda mavjudligi antroposentrik tilshunoslik bag'rida paydo bo'lgan lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishining tamal, to'g'ri va e'tirof etilgan g'oyalardan biridir" [Mahmudov, 2017; 136]. Madaniyatlilik darajasi har xil bo'lganligi sababli uni namoyon qiluvchi shaxslar ham turlicha bo'lishi tabiiy. Lisoniy shaxs nutqiy jarayonda namoyon bo'ladigan shaxslarning ko'p qirrali, o'ziga xos xususiyatlarga

ega paradigmasidir. Kommunikativ muloqotga kirishayotgan shaxs real muloqot paradigmasidagi, faoliyatdagi lisoniy shaxsdir. Uning nutqida lisoniy shaxs sifatida darajasi ham, o'zi mansub madaniyatning o'ziga xosligi ham namoyon bo'ladi. Lisoniy shaxs tushunchasi nisbatan yangi tushuncha bo'lsa-da, A.Navoiyning quyidagi fikrlari bu tushuncha bilan uyg'unligini ko'rishimiz mumkin. "So'z dur edurkim, aning daryosi ko'nguldur va ko'ngul mazharedurkim, jomiyi maoniyi juzv va kuldur. Andoqki, daryodin gavhar g'avvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javharig'a ko'ra zohir bo'lur. Ko'nguldin dog'i so'z durri nutq sharafig'a sohibi ixtisos vasilasi bila guzorish va oroyish ko'rguzur va aning qiymati ham martabasi nisbatig'a boqa intishor va ishtihor topar. Gavhar qiymatig'a nechukki, marotib usru ko'pdur, hattoki, bir diramdin yuz tumangacha desa bo'lur. So'z durrining tafovuti mundin dog'i beg'oyatroq va martabasi mundin ham benihoyatroqdur. Andoqki, sharifidin o'lgan badang'a ruhi pok yetar, kasifidin hayotliq tang'a zahri halok xosiyati zuhur etar" [Navoiy, 2000; 4]. Insonning jismoniy va ma'naviy tomonlarining sosial ahamiyati borasida falsafiy, ijtimoiy, psixologik yondashuvlar mavjud. Lisoniy shaxs tushunchasi tilshunoslikda fanlararo mavjud atamaning ko'chishi natijasida paydo bo'lgan. S.T.Vorkachev lisoniy shaxs to'g'risidagi mavjud ta'riflarni umumlashtirgan holda quyidagicha tavsiflaydi: "til egasi, nutqiy qobiliyatga ega bo'lgan, aniqrog'i, nutq tuza oladigan va idrok eta oladigan shaxs; tildan aloqa vositasi sifatida foydalanadigan kommunikant; o'z tilining lug'at boyligini egallagan, millatning milliy-ma'naviy qadriyatlari, xulq-atvorining prototipi" [Vorkachev, 2001; 65]. Ko'rinib turibdiki, S.T.Vorkachev lisoniy shaxs tushunchasini keng ma'noda qo'llaydi hamda "Pifagorning qaysi bir xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini o'rganmoqchi bo'lsang, uning tilini o'rgan degan fikri to'g'ri ekanligini asoslaydi" [Vorkachev, 2001; 65]. Lisoniy shaxs tushunchasi til sohibining ongi, dunyoqarashi bilan til o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Har qanday shaxs o'zini obyektiv faoliyat orqaligina emas, balki til va nutqsiz tasavvur qilib bo'lmaydigan muloqot orqali namoyon qiladi. Insonning nutqi uning ichki dunyosini aks ettiradi va uning shaxsiyati haqida tasavvur hosil qilishda ko'maklashadi. Lisoniy shaxsning lingvomadaniy aspektidagi tadqiqida lingvomadaniy tip tushunchasi yetakchilik qiladi. Lingvomadaniy tip "o'z xarakteri va xulq-atvori bilan lingvomadaniyatga ta'sir o'tkazuvchi, jamiyatning etnik yoki ijtimoiy o'ziga xosligini namoyon qiluvchi umumlashma obrazi" [Xudoyberganova, 2025; 32] bo'lib, turli madaniyat, millat vakillarining o'ziga xos tiplari bor. Lingvomadaniy tiplarni o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy masalalaridan biri bo'lib, nazariy jihatdan muayyan bir madaniyat vakillarining milliy-madaniy dunyoqarashi haqida tasavvur hosil qilishga yordam bersa, amaliy jihatdan til o'rganuvchilar uchun shu til bilan birga madaniyatni o'zlashtirishga ham yordam beradi. Lisoniy shaxs tushunchasi milliy xarakter, xulq-atvor tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Bu haqida V.I.Karasik quyidagicha fikr bildiradi: "Milliy xarakterni xalq tili orqali (aniqrog'i, lingvistik ong va kommunikativ xulq-atvor orqali) o'rganish turdosh fanlar – etnopsixologiya va etnosotsiologiyada olingan ma'lumotlarni hisobga olmasak, to'liq bo'lmaydi" [Karasik, 2002; 77].

Madaniyat yaxlit sistema sifatida o'z ichida kichik madaniy tizimlardan tashkil

topadi. Muayyan millat vakili o'ziga bog'liq bo'lmagan holda madaniyat va undagi qadriyatlarni o'zida aks ettiradi, bu esa o'z o'rnida uning nutqida namoyon bo'ladi. Madaniyatga mansublik jihatidan lisoniy shaxslarning turli tiplarini ajratish mumkin. Kichik madaniy tizimlar turli omillar ta'sirida yuzaga keladi. Masalan, yoshlar submadaniyatida turli lisoniy shaxslarning uchrashiga turli omillar, xususan, yosh, ilmlilik darajasi, hududiy mansublik sabab bo'lishi mumkin. Rus tilshunosligida G'arb madaniyati ta'sirida shakllangan yoshlar submadaniyatiga mansub gotlar va emolarning lisoniy shaxslari L.A. Xuranova tomonidan tadqiq qilingan [Xuranova, 2018].

O'zbek adabiyotida Sh.Xolmirzayevning "o'zbek xarakteri", E.A'zamning "Anoyining jaydari olmasi" kabi hikoyalari milliylikni, asrlar davomida shakllangan qadriyatlarni hamda milliy xarakterni namoyon qiluvchi lisoniy shaxslarni uchratish mumkin bo'lgan asarlar sirasiga kiradi. O'zbek adabiyotida lisoniy shaxs faqat muayyan madaniyatga ham mansub bo'lib, boshqa madaniyatda uchramasligi ham ham mumkin. Bunga misol qilib kayvoni lisoniy shaxsini olish mumkin [Umurzakova, 2023]. Ko'rinib turibdiki, muayyan madaniyatga mansub til birliklarining tahlili xilma-xil lisoniy shaxs tiplari xususida xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Insonlar qadimdan so'zning qudratiga, yaxshi so'zning yaxshilik, yomon so'zning yomonlik keltirishiga ishonishgan. So'z sehriga, uning qudratiga bo'lgan ishonch turli olqish va qarg'ishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Olqishlar bugungi kunda ham kundalik hayotimizda keng qo'llaniladi. Salomlashish, xayrlashish, yaqin insonlarga tabrik yo'llashda, notanish inson bilan tasodifiy muloqotda ham olqishlarga murojaat qilamiz. Professor B.Sarimsoqov so'z sehriga asoslangan marosim folklori janrlari haqida so'z yuritarkan, so'zning jodu qudratiga asoslangan marosim folklorini uch guruhga bo'ladi, olqishlar va qarg'ishlarni keng ommaviy ijro etiluvchi janrlar sifatida ajratadi. Olqishlar va qarg'ishlar ham boshqa so'z bilan bog'liq janrlar qatori tarixan professional shaxslar tomonidan aytilgan bo'lsa-da, keyinchalik ommaviy ijro bilan almashilganligini ta'kidlaydi [Sarimsoqov, 1986; 144]. O'zbek folklorshunosligida olqishlarning turlari, badiiyati, janr xususiyatlari haqida [Safarov, O'rayeva, 2007], badiiyati [O'rayeva, Roziqova, 2007], marosim olqishlarining o'ziga xosliklari [O'rayeva, 2005] tomonidan monografik aspektda tadqiq qilingan. Turkiy tillar folkloridagi uyg'unlik, so'z qudratiga ishonch qarashlarining aks etishini Oltoy folklori misolida S.Katash [Katash, 1979], kazim xantlari folklori misolida E. Kaksina [Kaksina, 2019] ishlarida kuzatish mumkin.

Olqishlar xalqning asrlar davomida shakllangan madaniyati, qadriyati, urf-odatlar bilan birga orzu-umidlari, maqsadlari, intilishlari tashuvchisi hamdir. o'zbek lingvomadaniyatida to'y yetakchi konsept sanaladi. "Lingvomadaniy konsept etnomadaniy xususiyatga ega bo'lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga ega molik informatsiyani uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir. U madaniy universalialarni ifodalaydi. Lingvomadaniy konsept tafakkurda mavjud bo'ladi, u o'zida kognitiv-ratsional va emotsional-psixologik mazmunni birlashtiradi" [Usmonova, 2019; 204-205]. O'zbeklarda to'y bilan bog'liq olqishlar ko'p bo'lib, xalq orasida boshqalarga yaxshi tilak tilashda aytiladigan "*Sizlarni ham to'yga yetkazsin*",

“Boshing to‘ydan chiqmasin”, “Topganingiz to‘yga buyursin”, nikoh to‘yida aytiladigan “keyingi yil beshik to‘ylariga kelaylik”, “o‘g‘il to‘ylariga kelaylik” kabi olqishlar bu tushunchaning o‘zbeklar kundalik hayotida nechog‘lik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Lisoniy shaxs tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda elita lisoniy shaxsi (элитарная языковая личность) degan tushuncha ko‘p uchraydi. Elita lisoniy shaxsi diskursiv shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan termin bo‘lib, bunday shaxs tilning biror bir yoki barcha uslublarida yuqori darajadagi madaniy va nutqiy kompetensiyalarning ideal tashuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday lisoniy shaxs tildagi lingvomadaniy birliklar, xususan, frazeologizmlar, o‘xshatishlar, ramzlar, nutqiy etiketlar, pretsedent birliklardan nutq jarayonida mohirlik bilan foydalanadigan hamda ma‘naviy qadriyatlarining shakllanishiga hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘lgan diskursiv shaxs sifatida baholanadi. Shu o‘rinda qayd etish kerakki, tadqiqotlarda lisoniy shaxs tushunchasi diskurs tushunchasi bilan birga qo‘llaniladi hamda diskurs tushunchasi ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog‘liq holda tushuntiriladi. Diskurs og‘zaki nutq tushunchasiga qaraganda kengroq bo‘lib, xalqning aqliy salohiyati, qadriyatlari, madaniyatini aks ettiruvchi hodisadir.

Bugungi kunda olqishlar asosan yoshi katta insonlar nutqida uchraydi. I.V. Bashkova lisoniy shaxsning verbal-semantik jihatlarini tadqiq qilishda asosiy e‘tiborni uning lug‘at boyligiga qaratadi. Aksariyat badiiy asarlarda asosiy figura inson bo‘lib, tilshunos yozuvchining lisoniy shaxsini tadqiq qilar ekan, bunda leksikasiga e‘tibor qaratish zarur, chunki muallif lisoniy shaxsining o‘ziga xosligi so‘z tanlashi bilan namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydi [Bashkova, 2018; 124-125]. Bunday birliklarning turli til egalari nutqida qo‘llanilishi lisoniy shaxs tiplarining xilma-xilligini ham belgilaydi. Xususan, o‘zbek lingvomadaniyatida boshqa til egalari uchun notanish bo‘lgan lisoniy shaxs tiplari borki, bu o‘zbek millatining asrlar osha shakllangan qadriyatlari, urf-odatlar, an‘nanalari, diniy mansubligi bilan belgilanadi. Olqishlarning erkak va ayollar nutqida qo‘llanilishining ham o‘ziga xosliklari bor [Xalimbekova, 2014]. Erkaklar nutqida qo‘llaniladigan olqishlar madad berish, g‘alabaga undash, kurashuvchanlik ruhini berishga xizmat qiladi. Ayollar nutqida qo‘llaniladigan olqishlar esa maqtash, rag‘batlantirish uchun qo‘llaniladi. Olqishlarning morfologik xususiyatlari ham gender mansublik jihatidan farqlanishi mumkin, buni quyida tahlillar asosida yoritamiz.

Badiiy matnda yozuvchilar olqishlardan lisoniy shaxsning milliy-madaniy mansubligini ifodalashda foydalanadilar. T.Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida o‘zbek lingvomadaniyatini aks ettiradigan birliklar ko‘p va o‘z o‘rnida topib qo‘llanilgan. Asarda qo‘llanilgan birliklar voqelikni aks ettirish, badiiylkni ta‘minlash bilan birga personajlar lisoniy shaxsining voqelanishida ham muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. “Lisoniy shaxs – muayyan bilimlar va tasavvurlar majmuyiga ega bo‘lgan nuqiy faoliyatni namoyon qiluvchi shaxsdir” [Usmonova, 2019; 178]. Lingvokulturologiyada lisoniy shaxs faqat nutq yaratuvchi, undan muloqot paytida foydalanuvchi shaxsgina bo‘lib qolmay, o‘zi mansub bo‘lgan madaniyat haqida ham tasavvur bera oladigan shaxsdir. Lingvokulturologiyada olamning lisoniy manzarasi

haqidagi tushuncha lisoniy shaxs tushunchasi bilan chamabarchas bog‘liqdir. Olamning lisoniy manzarasi muayyan tilda muloqot qiluvchi kishilarning olam haqidagi obrazlari yig‘indisi, u haqidagi bilimlari tizimidir. Olamni har kim o‘zicha anglashi, tasavvur qilishi mumkin, ammo uning lisoniy ifodasi esa umumiy bo‘ladi. Yozuvchi olamni anglashda asrlar davomida to‘plangan bilimlardan foydalanar ekan, uni aks ettirishda ham til zaxiralariga murojaat qiladi, ammo bu uning bilimi, tildan foydalana olish imkoniyatlarining har xilligi bilan xilma-xillik kasb etadi. Biror bir millatga mansub shaxsning lisoniy qiyofasini tahlil qilish uchun shu tildagi iboralar, o‘xshatishlar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi obrazlar tizimini tahlil qilish zarur.

Qissa voqealari o‘zbeklarning qadim an‘nanalari, turmush tarzi, kundalik hayotini aks ettiradi. Ayniqsa, asarda o‘zbek kurashi bilan bog‘liq leksik birliklar o‘zbek polvonlari lisoniy shaxsini voqelantirishda asosiy indikator vazifasini bajargan. Olqishlar qissada, asosan, kurash tushish jarayonida polvonlarni olqishlash uchun qo‘llanilgan bo‘lsa-da, kundalik hayotda o‘zbeklarga nutqida ko‘p uchraydigan, voqelikka munosabatni ifodalovchi *bali*, *barakalla*, *otasiga rahmat*, *ko‘z tegmasin* kabi olqishlar ham uchraydi.

Asarda to‘y, *kurash*, *halollik* yetakchi konsept sanalib, har bir voqea bevosita shu tushunchalar, ularning odamlar tomonidan turlicha anglanishi, o‘ziga xos munosabatini aks ettiradi. “Juda ko‘p xalqlar og‘zaki ijodida alohida adabiy janr sifatida tan olingan olqishlar til va nutqda jonli nutqiy muloqot jarayonining faol pragmatik omillaridan biri hisoblanadi. Og‘zaki va yozma adabiyotda olqishlarning lingvomadaniy hamda pragmatik interpretatsiya (talqin) xususiyatlari alohida e‘tiborni tortadigan masalalardan biridir. Ularda variantlilik doimiy kuzatilmaydi, lekin genderlik xususiyati alohida e‘tiborni tortadi” [Niyazova, 2022; 14]. *Ha, bo‘yingdan momong aylansin, o‘ynay ber; o‘zim kelin qilaman!* Keltirilgan ushbu misoldagi olqish so‘zlovchining yoshi kattaligiga, ayol jinsiga mansubligiga ishora qilgan. Odatda, bo‘y bilan bog‘liq olqishlar voyaga yetgan yoki o‘smirlik yoshidagi shaxslarga nisbatan ko‘proq qo‘llaniladi, bu olqishlarda ularning tashqi ko‘rinishidan, xususan, qaddi-qomatidan, bo‘yidan zavqlanish kabi ijobiy munosabat ham aks etadi. Asarda olqishlarning gender xoslanishiga ko‘ra erkaklar nutqida uchraydiganlari miqdor jihatdan ko‘p, chunki asosiy voqealar o‘zbek kurashi bilan bog‘liq tarzda kechadi.

“Olqishlarning kelib chiqishida jamiyatdagi har xil ijtimoiy qatlamlarning, turli kasb-hunar egalarining o‘z pirlariga ishonch-e‘tiqodining ham muayyan ta‘siri bor. Jumladan, turfa kasb-hunar egalarining o‘z faoliyatini boshlash yoki tugatishdan oldin kasb pirlariga murojaat qilib, ulardan madad so‘rashi, ishiga qut-baraka tilashi misolida buni kuzatish mumkin” [Niyazova, 2022; 12-13]. Asarda aynan *pir* bilan bog‘liq olqishlar ko‘p uchraydi. Yozuvchi bu olqishlardan personajlar lisoniy shaxsini voqelantirishda unumli foydalangan. Asar qahramonlari oddiy, sodda qishloq odamlari. Ular kurashni tomosha qilish jarayonida polvonlarga tanbeh beradilar, nasihat qiladilar. – *Bali polvon, bali! Mening qo‘lim emas, otamning qo‘li, deb olish, ha! – Polvon, piringni hamisha yod et, madad beradi!* Quyidagi misolda Bo‘ri polvonning xayolidan kechgan fikrlar ham polvonning e‘tiqodi, ishonchi haqida tasavvur hosil qilishda ko‘maklashadi. Boshqa polvonlar kabi kurashda yengishning sababi pirlarn-

ing qo‘llashidan deb biladigan sodda, jo‘n tasavvuri ifodalanadi. *Bo‘ri polvon kulimsiradi: “Vo ukkag‘arning o‘g‘li-e! Otamning piri dedi-ya. Shunday demaganda yiqitolmasdiyam-da. Uni mening pirim qo‘lladi, ha! E, bali, o‘g‘lim-e, bali!”*.

Mehmondo‘stlik o‘zbek xalqining asosiy stereotiplaridan bo‘lib, mehmonga izzat-ikrom ko‘rsatish, e‘zozlash yuksak qadriyatlardan sanaladi. Quyidagi olqish Bo‘ri polvon tilidan ko‘ngil so‘rab kelgan Nasim polvon va u bilan hamroh mehmonlarga nisbatan aytilgan. Bo‘ri polvon yuzko‘rmas bo‘lib ketgan bolalik do‘sti Nasimning fotihaga kelganini xushlamasa-da, u bilan kelgan mehmonlar izzatini qiladi. Xayrlashishda olqish aytadi: – *Esa, xo‘sh dengizlar! – dedi. – Bizni izzat qilib kelibsizlar, sizlarni xudo izzat qilsin!*

“Madaniyat kategoriyalari – makon, zamon, qismat, huquq, boylik, mehnat, vijdon, o‘lim va h.k. mavjud tizim qadriyatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va ijtimoiy axloq hamda dunyoni o‘zlashtirishning namunalarini belgilab beradi” [Usmonova, 2019; 179]. Quyidagi olqishlar polvonlik, unga xos fazilatlar, shaxsiy sifatlar haqida tasavvur beradi. Kurashda polvonlarning quloch ochishi, qo‘llarini o‘ynatib kurashi olqishlanadi. *Ha, qulochginangdan, polvonchalar! Davradan turishda qilingan duo va olqishlarda ham kurash, polvonlar turmush-tarzi bilan bog‘liq birliklar lisoniy shaxsning o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Qani, ilohi omin, yurtimiz hamisha tinch, obod bo‘lsin, polvonlarimizning beliga quvvat bersin, sochilgan rizq-ro‘zimizni terib yeb, yanagi davralargacha o‘ynab-kulib yuraylik, ollohu akbar! Olqishlar nafaqat olqish aytayotgan kishining shaxsiy sifatleri, dunyoqarashi, qiziqishlari balki olqishlanayotgan shaxs haqida ham axborot tashiydi. Davra aylanayotgan Tilovberdi cho‘kkalab, yerni tavof qildi: ikki kaftini yerga surkab yuzlariga tortdi, qur to‘rida o‘tirgan chollar ro‘parasiga tiz cho‘kdi. Chollar kaftlarini baravar ochdi” – Belingga quvvat, bilagingga kuch, yuragingga o‘t bersin... Keltirilgan matndagi belingga quvvat, bilagingga kuch, yuragingga o‘t bersin olqishi polvonga nisbatan aytilayotgan bo‘lib, uni aytayotgan shaxs ayni paytda olqishlanayotgan shaxsga zarur bo‘lgan jihatlarini sanaydi. So‘z qudratiga ishonch natijasida yashab kelayotgan olqishlarda xalqning milliy-madaniy qarashlari o‘z aksini topganligini quyidagi misolda ham ko‘rishimiz mumkin.*

Ha, barakalla, ota o‘g‘il! o‘yna, o‘ynay ber! Otangga o‘xshab o‘yna! Barmoqlar mardona, chaqqon o‘ynadi. Davra bundan jo‘shib ketdi.

– *Ha-ha-a-a!*

– *Otasining uli-da!*

– *E, bormisiz! Otangizga rahmat! Polvonning xo‘rozi samovar oladi! Ha!*

E, yasha, otasining uli!

O‘zbeklarda ota hurmatli zot sanalgani bois yaxshi insonning farzandiga nisbatan *otasining o‘g‘li* olqishi yuqori baho hisoblanadi. Yuqorida berilgan misolda Bo‘ri polvonning o‘g‘li Tilovberdi polvonga berilgan baholarning ichida qaratqich qaralmish shaklidagi *otasining uli* birikmasida lisoniy shaxsning dialektal mansubligi ham ifodalangan. o‘g‘il so‘zining *ul* sifatida qo‘llanilishi so‘zlovchining qipchoq shevasi vakili ekanligiga ishora qiladi.

Yozuvchi asarda Bo‘ri polvon lisoniy shaxsini shakllantirishda har bir holatda

olqishlardan foydalangan. *“Bali! Bizning aslimiz shunday edi! – u xayolan o’sha odam bilan gaplashdi. – Inchunin, o’zining asliga tortmagan, uni unutgan odam – odam ham emas!”*

O’zbek lingvomadaniyatida olqishlar bilan birga duo ham muhim lingvomadaniy ko’rsatkich sanalib, bunda ko’proq diniy e’tiqod bilan bog’liq tushunchalar aks etadi. Badiiy matnda lisoniy shaxsning, xususan, yoshi ulug’ kishilar lisoniy shaxsining voqelanishida duolarning o’rni va ahamiyati katta. Oddiy so’zlashuv tilida Yaratgan zotga nisbatan *Xudo, Xudojon* murojaati ko’proq qo’llaniladi. Quyidagi matnda lisoniy shaxs diniy e’tiqodi, tushunchalari haqidagi tasavvurni paydo qilishda *Xudo, Xudojon* murojaati, Allohning sifatlarini ifodalovchi leksik birliklar muhim indikator sifatida qo’llanilgan. Quyida B.Qobul asarlarida yetakchi lisoniy shaxs tiplaridan biri ena nuqtini individuallashtirishda duo hamda olqishlar asosiy vositalar sifatida ko’rinadi.

Enamning tillaridan xudo tushmaydi.

– *Ha, boringga shukur, Xudojon. o’zing Bir-u Borsan. o’zing Yakka-yu Yagonasan. o’zing panohingda asra. o’zingdan o’zgaga qayrilmaydigan qil. Tishini putun qil, Xudojon! Ko’zini putun qil, Xudojon! Ko’zini to’q qil, Xudojon! Do’stiga zor, dushmanga muhtoj qilma, Xudojon! Jumlayi mo’min qatorida kam qilma, Xudojon! Tiladim sandan. Tovoniga tikoningni yo’latma. Tiladim sandan, Xudojon!* (B.Qobul).

O’zbek lingvomadaniyatida o’zi uchun aziz bo’lgan kishining o’rniga o’zining jonini tikish, xavf paydo bo’lganda o’zini tutib berish kabi xususiyatlar aks etgan leksik birliklar asrlar davomida shakllangan madaniyat, qadriyatlar natijasi sanaladi. Asosan, ayollar nutqida suyganda qo’llaniladigan *o’lay, o’layin* kabi birliklardan aziz bo’lgan kishisining jonini asrashga ishongan davrlardan boshlab foydalanilgan. Bugungi kunda bu birliklar kutilmagan holatdan ajablanganda, o’zini koyiganda, xijolatli holat sodir bo’lganda ham qo’llaniladigan birlik darajasida faol hisoblanadi. *Mana, mani jonim... Navoiyqosh balamga o’lay. Navoiy bovosini eslagan balamga o’lay-da. Atalarini eslagan balamga o’lay. Atalarini chirog’i o’chmasin degan balamga o’lay. Mani tepib-tepib ko’msinda shu Balang. Ha, atalar go’rlaringda tinch yotinglar ega bor. Manga shunday Balajon bergan Xudojondan aylanay... Keltirilgan matndagi balam, ata, mani kabi birliklar lisoniy shaxsning dialektal mansubligini ham ko’rsatadi. Olqish diniy e’tiqodni ifodalovchi duolar bilan yakunlanadi. Ha, Xudojon! ... o’zing bandam degan bandalaringdan qil... Balamning balalarini, jo’ralarining balalari qo’shilishib go’rimni ustida o’ynatar kunlaringdan men mustaringni begona qilma! Tiladim. Es engan balalarning sadag’asi ketay... (B. Qobul).* Yozuvchi duolarni chinakam xalqona tilda bergani lisoniy shaxsning o’ziga xos dunyoqarashini, oxirat bilan bog’liq sodda va jo’n tasavvurlarini ifodalashda qo’l kelgan, asar tilining shirali, shu bilan birga ishonarli, ta’sirchan chiqishini ta’minlagan. Mazkur duolarni qilayotgan, nevarasini olqishlayotgan shaxs – diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor, yoshi ulug’ ayol. Duolarida ham uning ilm ahliga yo’ldosh bo’lishini tilaydi. *Keyin qo’llarini duoga ochgancha ko’zlariga hech narsa ko’rinmaydi: Xudojonga shukur, balajonimni qog’oz-qalamga jo’ra qilgan... qavatiga o’zingni degan, o’zing nazar qilgan, o’zingdan tonmaydigan, arqoningni ushlagan, iso nafasli, sulton ko’ngilli, bek*

fe'lli yo'ldoshlar ber... o'zing yakka-yu yagonasan... (B. Qobul).

Badiiy asar tilini lingvokulturologik aspektda tahlil qilish lisoniy tip haqida ma'lumot olishga ko'maklashadi. Chunki ma'lum bir xalqning yashash tarzi, an'analari, madaniyatiga oid qarashlari uning tilida, xususan, paremalarida, iboralarida, pretsedent birliklarida aks etadi. Badiiy adabiyotda esa bu birliklardan mahoratli yozuvchilar unumli foydalanadilar. Rus tilshunosligida Y.Vodolazkin lisoniy shaxsini lingvokulturologik aspektda tadqiq qilgan O.S. Sklyarova uning yuqori darajadagi lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishini asarlarida intertekstuallikni ta'minlovchi vositalarning uchrashi bilan belgilaydi. Yozuvchi jahon madaniy merosidan unumli foydalanadi, bu ko'plab allyuziv nomlardan foydalanishida ham ko'rinadi. Ma'lumki, allyuziv nomlar nafaqat yozuvchidan, balki o'quvchidan ham tayyorgarlik va bilim talab qiladi [Sklyarova, 2021;16].

O'zbek lingvomadaniyatida olqishlar bilan birga qarg'ishlar ham lisoniy shaxsning milliy-madaniy mansubligini ifodalashda muhim vosita sanaladi. Qarg'ishlar ham olqishlarkabi so'zning qudrati, uning sehri, kishilarga salbiy ta'siri bor, deb ishonishning natijasi o'laroq yuzaga kelgan. Tadqiqotchi D.Niyazova "duolar, qarg'ishlar, tilak bildiruvchi birliklar, so'kishni anglatuvchi turli qo'llanishlar erkak va ayollarda farq qilgani sababli nutq egalarining jinsiga ishora qiluvchi sosiolingvistik indikatorlar", deb hisoblaydi [Niyazova, 2020; 64]. Bunday birliklar, shuningdek, ularning ma'naviy qiyofasi, darajasi hamda yoshiga ishora qiladi. Olqishlar va qarg'ishlar, asosan, yoshi katta lisoniy shaxs nutqini individuallashtirishda qo'llaniladi. Qarg'ishlarda baho munosabati o'ta salbiy yoki kuchsiz ifodalanadi, ba'zi o'rinlarda esa shunchaki koyish uchun ham ishlatiladi. O'zbek folklorshunosligida qarg'ishlarning janr xususiyatlari F.Eshbayeva tomonidan tadqiq qilingan [Eshbayeva, 2008]. *Shu gaplarni aytmagan enaniyam, qaynananiyam tezroq ko'tarsin-da* (B.Qobul). Qarg'ishdan ifodalangan axborotni tushunish uchun adresatdan lisoniy birlik tarkibidagi ma'noni anglash talab etiladi. Keltirilgan misolda *ko'tarsin fe'li* janoza marosimi bilan bog'liq bo'lib, janozasi o'qilgan mayit dafn qilinishi uchun olib ketiladigan paytga nisbatan qo'llaniladi. o'zbek lingvomadaniyatida vafot etgan kishining dafn qilinishi haqidagi xabar *mayit bomdodda ko'tariladi, peshinda ko'tariladi, asrda ko'tariladi* kabi sintaktik birikmalari orqali beriladi. Bundan tashqari, ushbu birikmada ruhning ko'tarilishi bilan bog'liqligi haqidagi axborotga ham ishora bor. Mazkur ma'lumotlardan bexabar adresat aytilgan qarg'ishning ma'nosini anglamasligi, natijada esa adresantning muloqotdan ko'zlagan intensiyasi amalga oshmasligi mumkin. Quyidagi misolda ham diniy e'tiqod bilan bog'liq axborotga ishora qilinadi. *Noumidning oti o'chsin, betini teskari qilsin. Ikki rakatli bomdod butun dunyo-yu, undagi hamma narsalardan yaxshi, deganlar payg'ambarimiz* (B.Qobul).

Lingvomadaniyatshunoslikda lakuna tushunchasi mavjud bo'lib, lakunar birliklar qo'llangan matn o'zga madaniyat vakillari uchun tushunarli bo'lmaydi. "Lakunalar madaniyatlararo muloqotda tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqni ko'rsatib beruvchi muhim omil hisoblanadi. Lakunalar, asosan, tillarning qiyosida seziladi" [Usmanova, 2019; 130]. o'zbek lingvomadaniyatida *or* tushunchasi o'zga madaniyat vakillari uchun lakunar birlik sanaladi. Quyidagi misolda lisoniy shaxsning mill-

liy-madaniy mansubligini ifodalashda yozuvchi *or* tushunchasini beradigan *o'ron* so'zidan foydalangan. *o'lmay o'ronsiz qol. o'lmagin-u o'ronsiz qol. o'ron – bu nasab, oliy nasablik, or, – deydi menga Nafas aql bo'lib* (B.Qobul).

O'zbek millatiga mansub shaxs uchun *or*, nomusni yo'qotish eng uyatli hollardan biri sanaladi, orsiz qolishdan o'lishni afzal bilgan millat uchun bu holat xalq tilida qo'llaniladigan qarg'ishlarda ham o'z aksini topgan.

Lisoniy shaxs milliy-madaniy o'ziga xosligini ko'rsatuvchi yana bir vosita o'xshatishlardir. Tilning tilsimotga boyligi, asrlar davomida shakllangan qadriyatlar, bilimlarni avloddan avlodga yetkazuvchi xazina ekanligi olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Professor N.Mahmudov tilga “xalqning tamomila o'ziga xos sa'jiyasi, milliy mentaliteti, madaniyati, ma'naviyati, ruhiyati, tafakkur tarzi va taxayyul tamoyili, idrok intizomi kabi favqulodda muhim xususiyatlari bevosita ana shu xilqatda rost tajassumini topadi” [Mahmudov, 2017; 167] – deb baho berganlar.

“O'xshatishlar – har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo'lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslash bo'lib” [Usmanova, 2019; 102] badiiylilikni ta'minlashda, voqelikni qiyos, o'xshatish asosida tasvirlashda, shuningdek, lisoniy shaxsning milliy-madaniy mansubligini ifodalashda qadimiy tasvir vositalaridan biri hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida o'xshatishlarning semantik-struktur, lingvomadaniy xususiyatlari haqida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Badiiy matnda lisoniy shaxs nutqida qo'llanilgan o'xshatishlarini tadqiq qilish mazkur lisoniy shaxs mansub bo'lgan madaniyat haqida tasavvur beradi. D.Xudoyberganova o'xshatish va metaforalarning aynan shu jihatlariga to'xtalib, quyidagicha fikr bildirgan edi. “Kuzatishlar natijasida aytish mumkinki, o'xshatish va uning qisqargan shakli bo'lgan metaforalar matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etishi bilan birga, til sohiblarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarini ham namoyon etuvchi hodisa bo'la oladi. O'xshatish va metaforalar asosiga qurilgan matnlar muayyan tilda qoliplashgan matn shakllari (ularni matnning pretsedent shakllari tarzida ham baholash mumkin)ni aniqlash imkoniyatini ham beradi” [Xudoyberganov, 2015; 46]. Ma'lumki, o'xshatishda voqelik, narsa-hodisa, predmet yoki shaxs muayyan bir narsaga o'xshatiladi, ya'ni shu o'xshatilayotgan obyektning obrazli qiyofasi shakllantiriladi. Turg'un o'xshatishlardagi obrazlar esa “madaniyat olamiga olib kiruvchi ochqich bo'lib xizmat qiladi. Obrazlar o'xshatishlar semantikasiga joylangan madaniy axborotni, millatning madaniy me'yorlarini, uning mentalitetidagi ustuvor qadriyatlarni, umuman, olam haqidagi tasavvurlarni tushunish imkonini beradi” [Usmonov, 2020; 63]. Badiiy asarlarda esa turg'un o'xshatishlar bilan birga yozuvchining ijodkorlik qobiliyati, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli bilan vujudga kelgan o'xshatishlar ham ko'p qo'llanilib, bu muallif yoki personaj lisoniy shaxsini voqelantirishda muhim omil sanaladi. F. Usmanov lisoniy shaxs, qadriyat va baho tushunchalari o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratgan. “Inson uchun fundamental ahamiyatga ega bo'lgan qiyoslash amaliyotining hosilasi bo'lmish o'xshatishlar yordamida o'zining ko'p variantli nominatsiyasiga ega tushunchalarni aniqlash millat hayotidagi qadriyatli dominantalarni aniqlash demakdir”, – deb hisoblaydi [Usmonov, 2020; 100].

Badiiy matnda o'xshatishlar lisoniy shaxsning individual xususiyatlarini, shaxs sifatida boshqalardan farqli jihatlarini, voqelikka, borliqqa nisbatan subyektiv bahosini ifodalashda muhim vosita sanaladi. O'xshatishlar vositasida lisoniy shaxsning ijtimoiy mavqeyi, diniy, milliy mansubligi haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Ko'prikning shaharga tushish tarafida o'pirilib tushgan ko'k gumbazlar sabzisi qolmagan, yanagi erta qishgacha keraksiz o'raday og'zini ochib turadi (B.Qobul). *Ko'prikdan qo'rqqanidan yig'lashni ham unutgan go'dakdek bo'lib tushdim* (B.Qobul).

Keltirilgan o'xshatishlar 7-8-yoshlardagi bola nutqida qo'llanilgan bo'lib, bola borliqdagi narsa-hodisalarga bolalarcha nigoh bilan baho bergan. Sabzi ko'miladigan o'ra va binolarning nurab, koshinlari to'kilgan, ma'lum qismi ochilib qolgan gumbazlarni qishloqda o'sgan, qish bo'yi sabzi saqlanadigan o'raning bo'shagan holatini ko'rgan bolagina qiyoslay oladi, bir-biriga o'xshata oladi. Bu bola lisoniy shaxsini berishda muhim vosita sifatida qo'l kelgan. Ikkinchi o'xshatishda esa bevosita baho munosabati ham ifodalangan bo'lib, o'zining holatini qattiq qo'rquv oqibatida yig'lashni unutgan go'dak holatiga o'xshatgan.

Badiiy matnda muallif-hikoyachi lisoniy shaxsini berishda o'xshatishlar muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Quyidagi misolda qo'llanilgan o'xshatishli qurilma bolaning yoshiga ishora qilish bilan birga yashash joyi haqida ham axborot tashiydi. *Opam qo'limdan siltab, ko'p savol bermasligimni ta'kidlagancha, labini burib, yuzini qishloqning eng xunuk kampiri – Qoramomoning betiga o'xshatib, achchig'i, jahli chiqayotganligini bildiradi* (B.Qobul). Bu gapdan so'zlovchining yosh bolaligiga ishora qiluvchi birlik sifatida *opam qo'limdan siltab, ko'p savol bermasligimni ta'kidlagancha* gaplarini olish mumkin. Bunda so'zlovchining yosh bola ekanligi opasi qo'lidan ushlaganligi, ko'p savol berayotganligi bilan anglanadi. *Qishloqning eng xunuk kampiri* sifatlovchi-aniqllovchisi esa yashash hududiga ishora qiladi. Quyidagi misolda ham qo'llanilgan o'xshatish lisoniy shaxsning yashash hududiga ishora qiladi. *Endi gaz suv ichib bo'lgandimki, budka orqasidan og'zi ko'na kalishday tarvaqayib o'zimizning juhud ko'rindi* (B.Qobul).

Kalish oyoq kiyim sifatida qishloq hududlarida kiyiladi, uning og'zining ochilib qolganligi eskiligiga ishora qilish bilan birga o'xshatilayotgan subyektga nisbatan baho munosabatini ham ifodalagan. Inson tabiati xilma-xil bo'lgani kabi ularning voqelikka munosabati ham xilma-xildir. O'xshatishlar inson ruhiyatini, shaxs sifatidagi xarakter-xususiyatlarini aks ettirishda, ma'naviy-axloqiy jihatlarini ko'rsatishda muhim vosita sanaladi. Lisoniy shaxsning yuqorida sanalgan xususiyatlarini aks ettirishi bevosita nutqida namoyon bo'ladi. Quyidagi misolda qo'llanilgan xususiy muallif o'xshatishi ham muallif-hikoyachi nutqining o'ziga xosligini ta'minlashga xizmat qilgan. *Ko'ylaklar jiqqa ho'l bo'lmagan vaqtlar beqiliq xushtorday o'zicha qizlarning bir g'uchchasiga tegib, bir quymichni quchib yurgandi* (B.Qobul).

Badiiy asarda qahramon yoki muallif nutqida qo'llanilgan o'xshatishlar ularning olam haqidagi tasavvurini, atrofidagi voqelikka munosabatini ifodalash bilan birga milliy-madaniy mansublik haqidagi axborotlarni ham tashiydi. O'zbeklarda qoshining qoraligi, yoysimonligi go'zallik timsoli bo'lib, qoshning qoraligi, shak-

lini ifodalash uchun *zulukdek*, *qunduzdek*, *popukdek* (ko‘p hollarda ko‘z bilan juft holatda), *sichqonning dumidek* (ingichka), *qalamdek*, *qaldirg‘och qanotidek*, *kamalakday*, *kamondek*, *yoydek* kabi o‘xshatishlar qo‘llaniladi. *Zulukday* o‘xshatishi qora, tim qora rangdagi har qanday predmet, jonzotga nisbatan ishlatilib, o‘zbek tilida tashqi o‘xshashlik (belgi) hamda ichki o‘xshashlik (xususiyat) ifodalash uchun qo‘llaniladi. Belgi asosida o‘xshatilganda *zulukday* o‘xshatishi qora rangdagi ot, mashinaga nisbatan *zulukday ot*, *zulukday qop-qora mashina*, *zulukday osilgan mo‘ylov* tarzida, xususiyat ifodalaganda *zulukdek yopishib olmoq*, *zulukdek qonini so‘rmoq* shaklida qo‘llanilishi mumkin. Quyidagi misolda muallif-hikoyachi lisoniy shaxsining o‘zbek millatiga mansubligini uning nutqida qo‘llanilgan *zulukday* o‘xshatishi ta‘minlagan ... *qoshiga tig‘ tegmagan qizlarning oldiga yigitning bo‘zi, bo‘risi yaqinlashganda qop-qora qoshlarning qon hidini sezgan zulukday qo‘zg‘alishi bir qiyqiriq* (B.Qobul).

“O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”da *ari uyasi(ini)dek* o‘xshatishining uch ma‘nosi berilgan. Bu o‘xshatish g‘uvullagan ovoz chiqarmoq, g‘ala-g‘ovur, shovqin-suron solmoq; tasavvurda g‘uvullagan kabi ovozni tuymoq, ya‘ni inson miyasiga nisbatan; to‘p, to‘da holida tartibsiz va tig‘iz harakat qilmoq kabi ma‘nolarni ifodalaydi [Mahmudov, Xudoyberganova, 2013; 29]. Quyidagi misolda *ari inidek* o‘xshatishi *buzilgan* sifatlovchisi bilan birga kelib, voqelikni bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qilgan hamda so‘zlovchining salbiy munosabatini ifodalagan. Bu o‘rinda muallif-hikoyachi lisoniy shaxsining milliy-madaniy mansubligi keyingi gapda keltirilgan *chilladagi kuyovlar* birikmasi bilan yanada oydinlashgan. Ma‘lumki, to‘ydan keyin, yangi chaqaloq tug‘ilganda qirq kun chilla saqlash an‘nanasi o‘zbeklarga xos bo‘lib, boshqa millat vakillaridan ajralib turuvchi xususiyat sanaladi. *Bekoriga ular turadigan shiypon oldi buzilgan ari inidek g‘uj bo‘lmaydi-yov. Bo‘z yigitlar-ku mayli, chilladagi kuyovlarga balo bormi? Oxiri yaxshilikka bo‘lsin* (B.Qobul).

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, badiiy asarlarda qo‘llanilgan o‘xshatishlar nafaqat personaj lisoniy shaxsi, balki muallif lisoniy shaxsi haqida ham axbarot tashiydi. B.Qobul asarlaridagi lisoniy shaxsning milliy-madaniy mansubligini ko‘rsatuvchi o‘xshatishlarni insonning tashqi ko‘rinishini, jismoniy xususiyatlarini, xarakter-xususiyatini, narsa-predmetning belgi-xususiyatini ifodalovchi o‘xshatishlar kabitur-larga bo‘lish mumkin [Umurzoqova, 2024; 218]. Individual-muallif o‘xshatishlari nutqiy hodisa sanalib, turg‘un o‘xshatishlardan farqli ravishda tilda tayyor holda mavjud bo‘lmaydi. Yuqorida tahlilga tortilgan o‘xshatishlar nutqning emotsionalligini, ta‘sirchanligini ta‘minlashga xizmat qilishi bilan birga muallif lisoniy shaxsining shakllanishida muhim vosita sanaladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, olqishlar va qarg‘ishlar muayyan bir millat madaniyati haqida tasavvur berish bilan birga lisoniy shaxsning yoshi, jinsi, qiziqishlari, ma‘naviy qiyofasi, ijtimoiy mavqeyi, olam haqidagi bilimlari haqida ham axborot tashiydi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, lingvomadaniy aspektda olib borilgan tadqiqotlarda ikki xil yondashuv asosida lisoniy shaxs tiplari ajratilganligini ko‘rish mumkin: umumiy etnomadaniy tiplar (rus, ingliz madaniyati vakili) va muayyan jami-

yatga xos ijtimoiy-madaniy tiplar (ziyoli, amaldor, hukmdor). Lingvokulturologiya lingvomadaniy tipni lisoniy shaxsning milliy-madaniy, tarixiy hamda milliy qadriyat-larni aks ettirgan hamda o'ziga xos xarakter qirralarini namoyon qilgan umumlashma ko'rinishi sifatida o'rganadi. Bu xarakter qirralarini o'rganishda, shubhasiz, olqish, qarg'ish kabi lingvomadaniy birliklar muhim ahamiyatga ega.

Olqishlar boshqa folklor janrlaridan o'ziga xos lisoniy qolipga egaligi, fe'llardagi morfologik shakllarning xoslanganligi bilan ham ajralib turadi. Fe'l asosan buyruq-is-tak shaklida bo'lib, so'zlovchining tilagi, niyati aks etadi. Yozuvchilar badiiy matnda olqish, duo, qarg'ishlardan qahramonlar lisoniy shaxsini ifodalashda foydalanadilar, bu bir paytning o'zida ularning hududiy mansubligi, jinsi, kasb-kori, diniy e'tiqodi haqida ham ma'lumot beradi. O'xshatishlar ham lisoniy shaxs milliy-madaniy man-subligini ko'rsatuvchi muhim vosita bo'lib, unda til egasining olam haqidagi qarash-lari aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy (2000). *Mukammal asarlar to'plami*. 16-tom. Toshkent: Fan.
2. Bashkova, I.V. (2018). *Teoriticheskiye osnovaniya russkoy semanticheskoy personologii: obyekti i metod*. Diss. d-ra fil. nauk. Krasnoyarsk.
3. Ivansova, E.V. (2010). *O termine «yazikovaya lichnost»: istoki, problemi, perspektivi ispolzovaniya* // Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta. №4 (12). – S.24-32.
4. Karasik, V.I. (2002). *Yazikovoy krug: lichnost, konsepti, diskurs*. Volgograd: Peremena. – 477 c.
5. Katash, S.S. (1979) *Alkish Sos (blagopojelaniya) – drevniy janr altayskogo folklori. Ulagashevskie chteniya*. Vip.I. Gorno-Altaysk. – S.63-77.
6. Kaksina, E.D. (2019). *Blagopojelaniya kak odin iz janrov traditsionnogo folklori kazimskix xantov* // Kultura i sivilizasiya. Tom 9. № 5A. – S.68-76.
7. Mamatov, A. (2020). *Zamonaviy lingvistika (lingvomadaniyatshunoslik asoslari)*. Toshkent: Tafakkur avlodi.
8. Maslova, V.A. (2010). *Lingvokulturologiya*. M.: Akademiya.
9. Mahmudov N., Xudoyberganova D. (2013). *O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati*. Toshkent: Ma'naviyat.
10. Mahmudov, N. (2017) *Til tilsimi tadqiqi*. Toshkent: Mumtoz so'z. – 176 b.
11. Niyazova, D. (2020). *Badiiy matnda lisoniy shaxs tiplari*. Filol. fan b. fals. dok (PhD) ... diss. Qarshi. –133 b.
12. Niyazova, M. (2022). *Ingliz va o'zbek adabiyotida olqishlarning badiiy-estetik vazifalari tipologiyasi*: Filol. fan. b. fals. dok (PhD) diss. avtoref. Buxoro. – 56 b.
13. Sarimsoqov, B. (1986). *O'zbek marosim folklori*. Toshkent: Fan.
14. Sarimsoqov, B. (1990). *Olqishlar: o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi*. Toshkent,. – B. 109-112.
15. Safarov, O., O'rayeva, D. (2007) *Marosim olqishlari haqida* // O'zbek marosim folklorini o'rganishning yangicha tamoyillari" mavzucidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. Navoiy. – B.15-18;
16. Sklyarova, O.S. (2021). *Lingvokognitivniy i lingvokulturniy aspekti reprezentatsii elitarnoy yazikovoy lichnosti pisatelya v xudojestvennom diskurse*. Avtoref. diss...kand. fil. nauk. Maykop.
17. Usmonova, Sh. (2019) *Lingvokulturologiya*. Toshkent. – 246 b.
18. Usmonov F. (2020) *O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi*. Filol fan. b. fals. dok (PhD) diss. Toshkent.
19. Umurzakova, M. (2023). *Kayvoni as a linguistic personality in the Uzbek language culture* // ANGLISTICUM: Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. Volume 12 | Issue 10 | Tetovo,. pp. 54-59. <https://www.anglisticum.org>.

- mk/index.php/IJLLIS/article/view/2452
20. Umurzoqova, M. (2024) *Olqishlar – lisoniy shaxs milliy-madaniy o‘ziga xosligini ifodalovchi vosita sifatida* // “O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – B. 214-218.
 21. Xalimbekova, M.K. (2014). *Gendernoorientirovannie blagopojelaniya, obslujivayushie rechevoy etiket (na materiale lezginskogo i angliyskix yazikov)* // Fundamentalnie issledovaniya. № 9 (chast 11). – S. 2576-2579.
 22. O‘rayeva, D., Roziqova, F. (2006). *Marosim olqishlari badiiyati* // Adabiyot va tarjima. To‘plam. Toshkent: Zarqalam. – B.104-106.
 23. O‘rayeva, D. (2005). *Motam olqishlari / O‘zbek motam marosimi folklorining janriy tarkibi, genezisi va badiiyati*: Filol. fanlari dok-ri ... diss. avtoref. Toshkent.
 24. Xudoyberganova, D. (2015). *O‘zbek tilida badiiy matnlarning antroposentrik talqini*. Filol. fan. d-ri diss.
 25. Xudoyberganova, D. (2025). *Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati*. Toshkent.
 26. Xuranova, L.A (2018). *Model yazikovoy lichnosti predstavatelya molodyojnix subkultur*. Avtoref. diss. kand. filol. nauk. Nalchik. – 27 s.
 27. Eshbayeva, F. (2008). *O‘zbek xalq qarg‘ishlarining janr xususiyatlari va badiiyati*. Toshkent. – 26 b.
 28. Qo‘chqorov, N. (1994) *O‘zbek xalq olqishlarining janr xususiyatlari va badiiyati*: Filol. fan. nomz. diss. avtoref. Samarqand.
 29. Murod, T. (2019). *Yulduzlar mangu yonadi*. Toshkent. – 252 b.
 30. Қобул Б. (2021). *Омачуроқ*. Тошкент,. – 656 б.

REFERENCES

1. Alisher Navoi (2000). *A perfect collection of works*. Volume 16. Tashkent: Science.
2. Bashkova, I.V. (2018). *Theoretical foundations of Russian semantic personology: object and method*. Diss. Doctor of Philosophy. Krasnoyarsk.
3. Ivansova, E.V. (2010). *On the term "linguistic personality": origins, problems, prospects of use* // Bulletin of Tomsk State University. No. 4 (12). – P. 24-32.
4. Karasik, V.I. (2002). *Language circle: personality, concepts, discourse*. Volgograd: Peremena. – 477 p.
5. Katash, S.S. (1979) *Alkish Sos (good wishes) – an ancient genre of Altai folklore*. Ulagashevskie readings. Issue I. Gorno-Altai. – P. 63-77.
6. Kaksina, E.D. (2019). *Good wishes as one of the genres of traditional folklore of the Kazym Khanty* // Culture and Civilization. Vol. 9. No. 5A. – P. 68-76.
7. Mamatov, A. (2020). *Modern linguistics (fundamentals of linguistic and cultural studies)*. Tashkent: Tafakkur avlodi.
8. Maslova, V.A. (2010). *Lingvoculturology*. Moscow: Academy.
9. Mahmudov N., Khudoyberganova D. (2013). *Explanatory dictionary of Uzbek language similes*. Tashkent: Ma’naviyat.
10. Mahmudov, N. (2017) *Study of the Linguistics of the Language*. Tashkent: Mumtoz so‘z. – 176 p.
11. Niyazova, D. (2020). *Types of linguistic person in a literary text*. Doctor of Philosophy (PhD) ... dissertation in Philology. Karshi. –133 p.
12. Niyazova, M. (2022) *Typology of artistic and aesthetic functions of applause in English and Uzbek literature*: Doctor of Philosophy (PhD) ... diss. author's abstract. – Bukhara. – 56 p.
13. Sarimsakov, B. (1986). *Uzbek ritual folklore*. Tashkent: Fan
14. Sarimsakov, B. (1990). *Applause. Uzbek folk oral poetic creation*. Tashkent. – P. 109-112.
15. Safarov, O., Uraeva, D. (2007) *About ceremonial applause* // Materials of the Republican scientific-theoretical conference on the topic “New principles of studying Uzbek ceremonial folklore”. Navoi. – P.15-18

16. Sklyarova, O.S. (2021). *Lingvocognitive and linguacultural aspects of the representation of the elite linguistic personality of a writer in artistic discourse*. Abstract of Cand. Phil. Sci. (Philology). Maykop.
17. Usmonova, Sh. (2019) *Linguistics*. Tashkent. – 246 p.
18. Usmonov F. (2020) *Linguistic-cultural study of similes in the Uzbek language*. Doctor of Philosophy (PhD) ... diss. author's abstract. Tashkent
19. Umurzakova, M. (2023). *Kayvoni as a linguistic personality in the Uzbek language culture* // ANGLISTICUM: Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. Volume 12 | Issue 10 |. Tetovo,. pp. 54-59. <https://www.anglisticum.org.mk/index.php/IJLLIS/article/view/2452>
20. Umurzakova, M. (2024) Applause - as a means of expressing the national-cultural identity of a linguistic individual // Proceedings of the international scientific-theoretical conference on the topic "Research on Uzbek folklore and dialects: practice, methodology, new approaches". – P. 214-218.
21. Khalimbekova, M.K. (2014). Gender-oriented good wishes serving speech etiquette (based on the Lezgin and English languages) // Fundamental research. No. 9 (part 11). – P. 2576-2579.
22. Uraeva, D., Rozikova, F. (2006). The art of ceremonial applause // Literature and translation. Collection. Tashkent: Zarqalam. – P.104-106.
23. Uraeva, D. (2005) Mourning applause / Genre structure, genesis and art of Uzbek mourning ceremony folklore: Doctor of Philology ... dissertation. author's ref. Tashkent.
24. Khudoyberganova, D. (2015). *Anthropocentric interpretation of literary texts in the Uzbek language*. Doctor of Philology Dissertation. Tashkent.
25. Xudoyberganova, D. (2025). *Explanatory dictionary of modern linguistic terms*. Tashkent.
26. Khuranova, L.A. (2018). Model of the linguistic personality of a representative of youth subcultures. Abstract of Cand. Philological Sciences Dissertation. Nalchik. – 27 p.
27. Eshbaeva, F. (2008). Genre characteristics and art of Uzbek folk curses. Tashkent. – 26 p.
28. Kuchkarov, N. (1994) Genre characteristics and art of Uzbek folk curses: Philology. science. candidate of sciences. dissertation. author's ref. Samarkand.
29. Murod, T. (2019). *Yulduzlar mangu yonadi*. Tashkent. – 252 p.
30. Kabul B. (2021). *Atachirak*. Tashkent. – 656 p.